



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 NURATDINOVA ILMIRA MURATBAYEVNA**
Inson huquqlarini ta'minlashda qonun ustuvorligining ahamiyati
- 14 AMINOV DALERJON ALISHER O'G'LI**
Norma ijodkorligi tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni
- 20 ГУЛЯМОВ ФИРУЗ РАВШАНОВИЧ**
Совершенствование антикоррупционной экспертизы проектов для принятия законов прямого действия
- 32 ПАЛАЧЕВА МАДИНА БАХТИЁР КИЗИ**
Актуальные проблемы государственной политики в сфере законодательных гарантий прав человека
- 40 БУРХОНОВ ШОХРУХБЕК ШУХРАТБЕК УГЛИ**
Особенности и отличительные черты правовой культуры на современном этапе развития
-
- 46 ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH**
Yangi O'zbekistonning nufuzi yuksalishida yangi notariatning o'rni
- 51 YUSUPOV SHERZOD ALISHEROVICH**
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
- 59 NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**
Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat etishning nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlili
- 67 АЗИМОВА НИЛУФАР ПУЛАТЖАНОВНА**
Совершенствование правового механизма оценки эффективности деятельности органов государственной власти в Узбекистане
- 77 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi
- 85 PARPIXO'JAYEV NUSRATULLO NIG'MATULLO O'G'LI**
Xalq deputatlari kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashning huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 93 KOCHKINOVA HOLIDAXON MAKSU DALI KIZI**
Особенности оценки эффективности органов местного самоуправления
- 101 NASRETDINOVA OLTINOY PO'LATOVNA**
Davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar
- 107 SALAYDINOV UMID MUHIDDIN O'G'LI**
Prokuratura organlari va vakillik organlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha xalqaro tajribaning tahlili
- 112 QOSHJANOVA DARIXA SMETOVNA**
Ma'muriy organlarning qarorlari ustidan shikoyat qilish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari
- 120 ATADZHANOV TIMUR ATABAEBICH**
Критерии оценки деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 129 QO'CHQOROV ABBOSJON BAHROMJON O'G'LI**
Muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi: O'zbekiston va xorij misolida
- 135 RASULOV ASLIDDIN NURIDDINJON UGLI**
Вопросы либерализации деятельности СМИ в условиях развития Республики Узбекистан
- 141 SOBITXONOV JOXONGIR ZUNNURXON Y'GLI**
Ислом банклари ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ўзига хос жиҳатлари
- 151 UTAYEVA MOHIPARI SHAXRIYOROVNA**
Raqamli bozorda ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish muammolari: xorijiy tajriba
- 158 NAEEM ALLAH RAKHA**
Governance of digital economy

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 163 NORBOYEV JO'RABEK ERKIN O'G'LI**
Fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik: maqomi, asoslari va tartibi
- 170 XOLIQOV SHOHRUX IKROMALI O'G'LI**
Xorijiy davlatlarda oilaviy mediatsiya institutining qiyosiy huquqiy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 178 **ABDURAYIMOV SARDORJON QAHRAMON O'G'LI**
Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan
jinoyat ishini tugatish tartibi
- 183 **TILLAYEV DO'STMUHAMMAD NE'MATJON O'G'LI**
Jazo tayinlashning umumiy asoslari: tahlil va taklif
- 190 **DJUMABAYEVA GULNAZA DJANABAYEVNA**
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida jinoyatchi
shaxsining umumiy tavsifi
- 195 **МАМАДЖАНОВА САБИНА УЛУГБЕК КИЗИ**
Ответственность за stalking в некоторых
зарубежных странах
- 204 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Институт освобождения несовершеннолетних
от уголовной ответственности или наказания
в англосаксонской правовой семье

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 213 **МУСУРМАНОВ ИСКАНДАР УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**
Некоторые правовые вопросы применения
блокчейн-технологий в международной торговле
- 226 **АБДУЖАББОРОВА ФАРЗОНА**
Проблемы миграции Европы в современных
условиях

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 233 **SHAXRIYOROV HAMIDULLA SHUXRAT O'G'LI**
Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka
tortish masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilik
muammolari
- 241 **ХАМРАЕВА НОДИРА ГАНДЖАБАЙ КИЗИ**
Некоторые аспекты пенализации уголовных
наказаний за коррупционные преступления
юридических лиц

UDC: 342.51(045)(575.1)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH VAZIRINING KONSTITUTSIYAVIY – HUQUQIY MAQOMI

Yusupov Sherzod Alisherovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

e-mail: sherzod-huquq@mail.ru

ORCID: 0000-0001-8630-5881

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat hokimiyati tizimida ijro etuvchi hokimiyatning, uning yadrosi hisoblangan hukumatning, shu bilan birga Bosh vazirning huquq va vakolatlarini, ularning mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari, bunda, mamlakatimizda 2002-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan referendum yakunlari natijasida 2003-yil 24-aprelda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan Konstitutsiyaning 98-moddasi yangi tahrirda qabul qilinishi orqali, shuningdek "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunning 2019-yil 10-dekabrda yangi tahrirda qabul qilinishi bilan hukumat faoliyatida Bosh vazirning huquqiy maqomi va shu bilan birga mas'uliyatini oshirish borasidagi islohotlar yangi bosqichga ko'tarilganligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimiz ijro hokimiyati tizimiga bir qator o'zgarishlar kiritilganligi, jumladan, Vazirlar Mahkamasi raisi lavozimi tugatilib, Bosh vazirning Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilishi va uning faoliyati uchun shaxsan javob berishiga oid norma kiritilganligi, shu bilan birga, Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish uchun kiritishda, maslahatlashuv institutining joriy etilganligi, hukumat faoliyati ustidan parlament nazorati institutlari, jumladan, ishonchsizlik votumi instituti joriy etilganligi va eng muhimi, Vazirlar Mahkamasi faoliyatida Bosh vazirning nufuzi sezilarli darajada ortganligi, amaldagi qonunchilikni tahlil etish orqali yoritib berilgan. Shu bilan birga, ijro etuvchi hokimiyat va hukumat faoliyatlarini tadqiq etgan milliy va xorijiy huquqshunos olimlarning fikrlari, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda hukumat va ularning rahbarlari haqida ham qisqacha bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Bosh vazir, ijro hokimiyati, konstitutsiyaviy huquq, Vazirlar Mahkamasi,

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВОЙ СТАТУС ПРЕМЬЕР-МИНИСТРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Юсупов Шерзод Алишерович,

магистрант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье представлены результаты поэтапных реформ в системе государственной власти по усилению прав и полномочий исполнительной власти, правительства, являющегося ее ядром, а также ответственности Премьер-министра, с учетом того, что по итогам проведенного в нашей стране 27 января 2002 года референдума 24 апреля 2003 года был принят Закон Республики Узбекистан "О внесении изменений и дополнений в Конституцию Республики Узбекистан", также принят 10 декабря 2019 года Закон «О Кабинете Министров Республики Узбекистан» в новой редакции, который вывел на новый уровень реформы в деятельности правительства по повышению правового статуса и одновременно ответственности Премьер-министра. Также отмечено, что в результате осуществленных реформ в систему исполнительной власти страны был внесен ряд изменений, в том числе упразднена должность Председателя Кабинета Министров, введена норма о

персональной ответственности Премьер-министра за руководство Кабинетом Министров и его деятельность, а также при внесении на рассмотрение кандидатуры Премьер-министра внедрен институт консультаций, усилена контроль за деятельностью правительства. Введение институтов парламентского контроля, в том числе института вотума недоверия, а главное, значительное повышение авторитета премьер-министра в деятельности Кабинета министров были освещены анализом действующего законодательства. Вместе с тем кратко излагаются мнения национальных и зарубежных ученых-правоведов, исследовавших деятельность исполнительной власти и правительства, а также самого правительства и их руководителей в развитых зарубежных странах.

Ключевые слова: Премьер-министр, исполнительная власть, Конституционный закон, Кабинет Министров.

CONSTITUTIONAL AND LEGAL STATUS OF THE PRIME MINISTER OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Yusupov Sherzod Alisherovich,

Master's Student at Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, the results of the step-by-step reforms carried out in the system of state power, as well as the rights and powers of the Prime Minister, their responsibilities are described. In this regard, as a result of the referendum held in our country in 27th January, 2002 in 24-th April, 2003, the new edition of law "One Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan" was adopted, and the Prime Minister's legal status in the government activity and at the same time the reforms on increasing responsibility have reached to a new level. Also, as a result of the reforms carried out, a number of changes have been introduced into the system of executive power of our country, including the termination of the post of chairman of the Cabinet of Ministers, the introduction of the norm on the leadership of the Prime Minister to the Cabinet of Ministers and the personal response to his activities, at the it was enlightened by the analysis. At the same time, the opinions of national and foreign lawyer scientists who studied the activities of executive power and government, as well as about the government and their leaders in developed foreign countries, are also briefly described.

Keywords: Prime Minister, executive power, Constitutional law, Cabinet of Ministers.

Kirish

Har qanday davlatda Prezident yoki monarx nafaqat davlat boshlig'i, balki har doim ijro hokimiyatining bir qismi (boshi) bo'lganligini, bu tartib bugungi kunda ham dunyoning ko'plab mamlakatlarida amalda ekanligini inobatga olgan holda va bu munosabatlarning rivojlanish tendensiyasini hisobga olib, har bir davlat instituti o'z funksiyalarini qayta ko'rib chiqish orqali, mantiqiy jihatdan faqatgina o'ziga xos va mos munosabatlarni tartibga solishi kerakligini davrning o'zi ko'rsatib turibdi. Bu o'z navbatida hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga har tomonlama va to'la mos keluvchi, rivojlangan huquqiy demokratik davlat qurish yo'lidan borayotgan har bir mamlakat uchun muhim masalalardan biri sanaladi. Bunda har tomonlama kuchli va mustaqil ijro hokimiyatini shakllantirish orqali davlat o'z oldida turgan vazifa va maqsadlarini to'la va mohirona amalga oshirishiga keng imkoniyatlar yaratiladi.

Yangi davlatchilikni shakllantirishda, ijro hokimiyatini kuchaytirishga alohida e'tibor berilganligi bejiz emas, sababi "Ijro hokimiyati kuchsiz bo'lsa, uning faoliyatiga boshqa organlar asossiz aralashaversa, unda qonunlar qog'ozda qolib ketaveradi, chunki kuchsiz organ o'z vazifasini bajara olmaydi" [1, 40-b.].

Mavzuning dolzarbligini, davlat hokimiyati tizimida Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazir vakolatlari va mas'uliyatining kengayishiga oid munosabatlarni o'rganish ahamiyatining yuqori ekanligi, davlat

qurilishi sohasidagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, Bosh vazirning, hukumat va butun hukumat tuzilmalarining vakolatlarini oshirib, shu bilan birga, ularning mas'uliyatini sezilarli darajada kuchaytirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri ekanligi bilan ifodalanadi.(tashkil qiladi)

Ijro etuvchi hokimiyat masalalarini o'zbek olimlaridan A.E. Rahmonov [2, 185-b.], A.M. Xoshimxonov [3, 164-b.], M.A. Axmedshaeva [4, 354-b.] va boshqalar tadqiq qilishgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan esa, J.Q. Wilson, Jr.] Dilulio [5, 448-b.], D.Y. Praymak [6, 178-b.], I.A. Vasilenko [7, 219-b.], A. Arutyunyan [8, 151-b.], S.V. Pronkin, O.Y. Petrunina [9, 496-b.], L.R. Simonashvili [10, 304-b.], A.I. Cherkasov [11, 224-b.], K.S. Belskiy [12], K.B. Safinov [13], K.B. Aranovskiy [14] va boshqalarning tadqiqot natijalari e'lon qilingan.

O'zbekistonda ijro hokimiyatini, shu jumladan, Bosh vazir faoliyatini tubdan takomillashtirish, ular faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, bunda ijro hokimiyatida Bosh vazirning o'rni va rolini, vakolat va mas'uliyatini tubdan oshirish zaruratini quyidagi holatlar bilan asoslash mumkin:

birinchidan, samarasiz, ma'muriy buyruqbozlik tizimi asosida faoliyat ko'rsatgan hukumat o'tish davrining ulkan mas'uliyati oldida o'z ekanligini ko'rsatdi, natijada qabul qilinayotgan qonunlar ijrosini samarali ta'minlash jarayoni izdan chiqdi,

ikkinchidan, bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ijro hokimiyati faoliyatini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish zarurati vujudga keldi,

uchinchidan, Bosh vazirning davlat boshqaruvida tutgan o'rni va mavqei yanada aniqlashtirish, uning vakolat va mas'uliyatini oshirish orqali Hukumat faoliyati samaradorligini oshirish mumkinligi, bugungi rivojlangan demokratik davlatlar misolida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Material va metodlar

Ma'lumki, dunyoning ko'plab rivojlangan demokratik davlatlari qatorida O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati tizimi ham, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi. Buni davlatimizning bosh qonuni bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida, konstitutsiyaviy tuzumning asosiy tamoyillaridan biri sifatida "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi" [15, 6-b.], deb mutahkamlab qo'yilganligi bilan ifodalashimiz mumkin.

Davlat mexanizmida hokimiyatlar bo'linishi tamoyiliga ko'ra, ijro etuvchi hokimiyat, davlat hokimiyatining o'ziga xos va maxsus kompetensiyaga ega ijroiya organlarining tizimi shaklida namoyon bo'ladigan mustaqil tarmog'i hisoblanadi. Shu bilan birga, ijro etuvchi hokimiyatning o'ziga xos eng muhim xususiyati – bu uning faoliyati qonunlarning, qonun chiqaruvchi hokimiyat va davlat rahbarining tegishli normativ – huquqiy hujjatlarini ijrosini ta'minlash xarakteriga egaligida namoyon bo'ladi.

Huquqshunos olim H.T. Odilqoriyevning ta'kidlashicha, hokimiyatlar bo'linishi prinsipining qo'llanilishi hokimiyatning suiiste'mol qilinishiga to'siq qo'yadi, fuqaroni mansabdor shaxslarning tazyiqidan himoya etadi, davlat idoralari faoliyatining samarali bo'lishiga sharoit yaratadi [16, 5-b.].

Hokimiyatlarning bo'linish tamoyilida ijro hokimiyati o'rnini tadqiq qilgan rossiyalik huquqshunos olim K.S. Belskiy ijro etuvchi hokimiyat tushunchasini keng va tor ma'nolarda ifodalaydi. Birinchidan, u ijro etuvchi hokimiyat tushunchasini keng ma'noda jamiyat hayotining faoliyati uchun normal sharoit yaratib berish maqsadida ierarxik ravishda tuzilgan hamda buning uchun unga tegishli vakolatlar topshirilgan va mazkur vakolatlarini amalga oshirishga layoqatli davlat boshqaruvi organlarining muayyan tizimidan iborat, deb hisoblaydi. Ikkinchidan, tor ma'noda ijro etuvchi hokimiyat deganda, uning fikricha, mansabdor shaxsning qonunlarni ijrosiga qaratilgan qaror qabul qilish huquqi va imkoniyatlari tushuniladi, bunda ushbu qarorning ijrosi unga bo'ysunuvchi xodim (ya'ni barcha xodimlar) tomonidan mazkur mansabdor shaxsning javobgarligi va nazorati ostida amalga oshirilishini nazarda tutadi [12, 76-b.].

Qozog'istonlik huquqshunos olim K.B.Safinov, ijro etuvchi hokimiyat organlarini hozirgi davrda umumiy va maxsus kompetensiyaga ega kollegial yoki yakkaboshchilikka asoslangan, markaziy va

mahalliy organlarni birlashtirgan, murakkab iyerarxik, ko'ptarmoqli, polifunksional tizimdan iborat ekanligini ta'kidlaydi [13, 13-b.].

Tegishli ilmiy adabiyotlarda ijro etuvchi hokimiyatning yana bir qator belgilari ham ko'rsatib o'tilgan. Xususan, ularda mazkur institutning hosila organ ekanligi, ya'ni ikkilamchiligi, qonun asosida faoliyat yuritishi, universalligi, unga xos jo'shqinlik, o'z vakolat doirasining mavjudligi, ierarxik qurilgan apparat va ko'p sonli professional xizmatchilarga ega bo'lishi, tashkilotchilik xususiyatining mavjudligi va nihoyat, farmoyish berish huquqiga ega ekanligi kabi belgilari ko'rsatib o'tilgan.

Yuqorida ijro etuvchi hokimiyatning asosiy belgilari to'g'risida keltirilgan fikr va mulohazalarni umumlashtirgan holda, ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif bersak, maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz:

Ijro etuvchi hokimiyat – bu davlat hokimiyati tizimining alohida mustaqil bo'g'ini bo'lib, u Konstitutsiya va qonunlar, qonun chiqaruvchi hokimiyatning qarorlari, Davlat rahbarining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining ijrosini ta'minlash maqsadida, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy hamda, ijtimoiy – iqtisodiy sohalarining boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha, masalalarni hal qilishda aniq yo'naltirilgan, tashkillashtiruvchi, farmoyish beruvchi, qonun osti va tezkor – ijrochilik faoliyatini omilkorlik bilan amalga oshiradigan hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlash, aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan kompleks ishlarni bajarish uchun, o'ziga berilgan umumiy va maxsus vakolatlar doirasida, mamlakatning butun hududida yoki muayyan ma'muriy hududda, bajarilishi umummajburiy bo'lgan huquqiy hujjatlar qabul qiladigan davlat boshqaruvi organlarining umumiy tizimi hisoblanadi.

Ijro hokimiyati qonunchilik hokimiyatidan farq qilib, yuqori va mahalliy organlar tizimidan tashkil topadi va quyidan yuqorigacha vertikal asosda bo'ysunish prinsipiga asoslangan va gorizontol ravishda o'zaro bog'langan davlat hokimiyatining muayyan tizimini tashkil etadi.

Yuqorida sanab o'tilgan qator belgi va xususiyatlardan kelib chiqib, fanda ijro etuvchi hokimiyat tizimiga o'zi qabul qilayotgan qarorlarga to'liq mas'uliyat bilan javob berishga layoqatli bo'lgan, mustaqil konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida markaziy o'rin va hal qiluvchi rol ajratiladi. Shu bois hokimiyatlar bo'linishi tamoyiliga muvofiq, ijro etuvchi hokimiyat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati nimalardan iboratligi hamda uning markaziy va oliy organi hisoblanadigan hukumatning huquqiy maqomi, o'ziga xos jihatlarini ilmiy mushohada qilish fanning oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

“Hukumat ijro etuvchi hokimiyatning yadrosi hisoblanadi va uning yaxlit tizimiga boshchilik qiladi” [2, 25-26-b.]. Jahon davlatchilik tajribasida yuqori ijro organi sifatida hukumat e'tirof etiladi. Jahondagi ayrim mamlakatlarda ijro hokimiyati Prezident tomonidan amalga oshirilsa, (masalan: AQSh, Braziliya, Meksika, Kolumbiya va ko'pgina Lotin Amerikasi davlatlarida), ayrim mamlakatlarda faqat hukumat tomonidan amalga oshiriladi (masalan: Rossiya, Fransiya, Gretsiya, Xorvatiya, Portugaliya) bunda Prezident davlat hokimiyati organlarining normal faoliyat yuritishini ta'minlaydigan institut sifatida gavdalanadi. Hukumat atamasi yuqori ijro organiga nisbatan ishlatiladigan atama bo'lib, hukumat turli mamlakatlarda turli nomlar bilan ataladi, masalan: Vazirlar Kengashi, Davlat Kengashi, Vazirlar Mahkamasi yoki to'g'ridan to'g'ri hukumat deb atalishi mumkin. Uning boshliqlarining nomi ham turli xil: Hukumat raisi (Ispaniya), Bosh vazir (Rossiya, Fransiya), Vazirlar Kengashi Raisi (Italiya), Davlat Kengashi Raisi (Xitoy), Kansler yoki Federal Kansler (Germaniya Federativ Respublikasi), Rais vazir (Bolgariya) va hokazo. Ammo barcha mamlakatlarda hukumat kollegial organ sifatida ish yuritadi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, “Kuchli ijroiya hokimiyati bo'lmasa, hatto eng demokratik yo'l bilan qabul qilingan qarorlar ham bajarilmasligi mumkin” [17, 15-b.]. Amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi, avvalo, amaldagi va yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining qay tarzda ijro etilishiga bog'liqdir.

Ma'lumki, “jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan hokimiyatni to'g'ri tashkil qilishga, boshqaruvda eng samarali vositalardan foydalanishga bog'liq” [18, 3-b.]. Albatta, mamlakatimiz rahbariyati tomonidan ijro hokimiyati faoliyatini isloh qilish orqali uning vakolatlari, mas'uliyati va davlat hokimiyati tizimidagi mavqeyini oshirishga qaratilgan islohotlarning izchillik bilan amalga oshirilayotganligi,

tarixiy tajriba va milliy davlatchilik an'analarini hisobga olgan holda hokimiyatning to'g'ri tashkil qilinayotganligi haqida xulosaga kelishga asos bo'ladi.

O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sharoitida Vazirlar Mahkamasi vakolatlari va mas'uliyatining kengayishiga oid munosabatlar o'rganilar ekan, mamlakatimizda 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumining huquqiy, siyosiy va tarixiy ahamiyatini esdan chiqarmasligimiz zarur. Chunki, ushbu referendum mamlakatimizda bevosita demokratiyaning muhim amaliy ifodasi bo'lib, uning natijasida milliy parlamentimiz bikameral tizimda qayta shakllantirildi [19], davlat rahbarining maqomi takomillashtirilib, Vazirlar Mahkamasining, jumladan, Bosh vazirning vakolatlari va mas'uliyati ortdi. 2003-yil 24-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining Raisi lavozimining tugatilishi Prezidentning aynan davlat boshlig'i sifatidagi maqomini yorqin namoyon qilib, o'z-o'zidan Hukumat faoliyatiga rahbarlik qiluvchi shaxs – Bosh vazirning ijro hokimiyatidagi rolini, shu bilan birga butun Vazirlar Mahkamasining davlat hokimiyati tizimidagi mavqeyini yuksalishiga xizmat qildi. Konstitutsiyaning hukumat faoliyatiga oid 98-moddasining yangi tahririda, Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy maqomi va tarkibi, uning shakllantirish tartibi, Bosh vazirning vazifa va vakolatlari, Prezidentning Vazirlar Mahkamasi faoliyatidagi ishtirokining ayrim jihatlari hamda ushbu organning ikki tarafdin javobgarligi masalalarini tartibga soluvchi normalar o'z aksini topdi [20]. Vazirlar Mahkamasi mamlakatda ijro hokimiyatini amalga oshirishi, Bosh vazir esa Vazirlar Mahkamasi Raisiga xos bo'lgan funksiyalarni bajarishi Konstitutsiyada belgilab qo'yildi. Demak, bu holatda, qonunchilikda "Vazirlar Mahkamasi Raisi" degan ibora o'rnini "Bosh vaziri" degan ibora egalladi [21, 91-b.], deb qayd etish o'rinli bo'ladi.

Bosh vazir lavozimining tarixiga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, u eng avvalo XVIII asrda Angliyada vujudga kelganligini bilamiz. XVIII asrning 1-choragida Angliya qiroli asli Gannoverlar sulolasidan bo'lgan qiroli Georg I edi. U yurtga begona bo'lgan qiroli bo'lib, ingliz tilini yaxshi bilmas, atrofidagi voqealar, hatto hukumat faoliyatidan ham bexabar edi. Bunday vaziyatda, hukumatdagi vazirlar orasidan bir vazirni qiroli va hukumat o'rtasidagi munosabatlarni soddalashtirish uchun tayinlash zarur edi. Bu vazir birinchi (prime) vazir hisoblanadigan bo'ldi. Keyinchalik Bosh vazir nafaqat birinchi vazir, balki hukumat boshlig'i sifatida e'tirof etiladigan bo'ldi [14, 416-417-b.].

O'zbekiston Respublikasida Bosh vazir lavozimi 1992-yil 4-yanvardagi 494-XII-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni [22] (O'zbekiston Respublikasining Vitse-Prezidenti lavozimini tugatish hamda O'zbekiston Respublikasining Bosh Vaziri lavozimini ta'sis etish va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (asosiy Qonuni)ga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida) bilan joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri – Vazirlar Mahkamasidagi eng yuqori mansabdor shaxs bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi hukumatiga rahbarlikni amalga oshiradi. Hukumat boshlig'i boshqa hukumat a'zolariga nisbatan alohida maqomga ega. Ko'pchilik mamlakatlarda u parlamentga yoki davlat boshlig'iga hukumat a'zoligiga nomzodlar taqdim etadi va ularni lavozimdan chetlashtirish masalasini qo'yadi. Yoki bu masalalarni o'zi hal qiladi. Bosh vazirning vazifa-vakolatlari, mas'uliyati Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan. Jumladan, 2014-yil aprel oyidagi, Konstitutsiyaning 98-moddasining yangi tahriri, Bosh vazirning huquqiy maqomini yanada aniqroq belgiladi.

Unga asosan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri:

1. Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi;
2. Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi;
3. xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi;
4. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi [15].

Endilikda Bosh vazir nafaqat Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi, balki unga rahbarlik qiladi va uning ishi samaradorligi uchun shaxsan javob beradi, Vazirlar Mahkamasi majlislariga raislik qiladi, hukumat hujjatlarini imzolaydi, davlat va xo'jalik boshqaruvi masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Kiritilgan o'zgartirishdan avvalgi tahrirda Bosh vazir xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan Prezident topshirig'iga binoan ish ko'rish belgilangan bo'lsa, bu holatda "Prezident topshirig'iga ko'ra" degan so'zning yo'qligi Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazirning mustaqilligi kengaytirilganligini ko'rsatdi.

Bosh vazirning konstitutsiyaviy vakolatlari qatoriga Prezidentga tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasi a'zolarini, viloyat, Toshkent shahar hokimlari nomzodlarini taqdim etish huquqi ham kiradi.

Konstitutsiyaga kiritilgan yana bir muhim yangilik, Bosh vazir lavozimiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko'rib chiqilayotganda va tasdiqlanayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturini taqdim etishidir.

Konstitutsiyada Bosh vazirning Vazirlar Mahkamasining ishi samarali bo'lishi uchun shaxsan javobgar bo'lishi ko'rsatib qo'yilgan. Shuningdek, Konstitutsiyada yana Bosh vazir O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, Prezident farmonlarida, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni ham bajarishi belgilangan.

2019-yil 10-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasida Bosh vazirning vakolat, vazifa va majburiyatlari quyidagicha belgilangan:

Bosh vazir:

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumati oldiga qo'yilgan maqsadli vazifalarning bajarilishini ta'minlash maqsadida vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari faoliyatini umumiy tarzda muvofiqlashtirishni amalga oshiradi, yuzaga kelgan kelishmovchiliklar bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi;

xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi, muzokaralar olib boradi va O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan xalqaro shartnomalarni imzolaydi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazir o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvining Vazirlar Mahkamasi majlisida ko'rib chiqish talab etilmaydigan masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarini lavozimga tayinlash hamda lavozimidan ozod etish to'g'risida taqdimnomalar kiritadi;

Vazirlar Mahkamasining o'tgan yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va navbatdagi yil uchun asosiy ustuvorliklar to'g'risidagi har yilgi ma'ruzasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumati a'zolari bilan birgalikda har chorakda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan, tegishli yilga mo'ljallangan davlat dasturi bajarilishining borishi to'g'risida hisobot taqdim etadi;

Vazirlar Mahkamasi a'zolariga nomzodlar Qonunchilik palatasi tomonidan ma'qullanganidan keyin bu nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Bosh vazir o'z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi.

Bosh vazir Vazirlar Mahkamasining ishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga muntazam ravishda axborot berib boradi.

Bosh vazir yo'qligida uning vazifasini Bosh vazirning birinchi o'rinbosari yoki Bosh vazir o'rinbosarlaridan biri bajarib turadi [23].

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamentida [24] ham Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislarida raislik qilishi, aniqlik kiritilgan holda,

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi faoliyatini umumiy muvofiqlashtirishi ham belgilab qo'yilgan.

Tadqiqot natijalari

Olib borgan kichik tadqiqotimiz natijasida, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining konstitutsiyaviy – huquqiy maqomi, davlatimiz mustaqilligining dastlabki yillariga qaraganda anchayin yuksalganligi, Vazirlar Mahkamasi faoliyatini amalga oshirishdagi mustaqilligining ortganligi, Oliy Majlis bilan munosabatlari aniqlashtirilganligi va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Bosh Vazirning Parlamentga nisbatan ancha ta'sirchan vakolatlaridan biri sifatida uning qonunchilik tashabbusi huquqiga ega ekanligi ham keltirishimiz o'rinli bo'ladi. Bosh Vazirning Prezident bilan va o'zidan quyi turuvchi davlat organlari bilan munosabatlaridagi o'ziga xos jarayonlar qonunchilik yo'li bilan tartibga solib kelinayotganligi, bunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribasidan foydalanilayotganligi ham ko'ramiz.

Xulosalar

Mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvi sohasida olib borilayotgan bosqichma-bosqich islohotlar natijasida, Bosh vazir va Vazirlar Mahkamasining roli va mavqeyining mustahkamlanishi, vakolatlari doirasining, mas'uliyatining kuchayishiga olib kelmoqda. Bu ijobiy holat, chunki davlat siyosatini amalga oshiruvchi asosiy organ sifatida Hukumat doim davlat hokimiyati tizimining markazida bo'lishi kerak, zero bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hokimiyatlar bo'linishi tizimining muhim elementi bo'lib, o'zining tarkibi, shakllantirilish tartibi, vakolatlari doirasi va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ijro hokimiyatining umumiy vakolatli kollegial organi bo'lib, mazkur hokimiyat organlari iyerarxiyasining eng yuqori pog'onasida turadi. Hukumat o'z faoliyatining xususiyatiga ko'ra, milliy davlatchilikni shakllantirish va mustahkamlashda, shuningdek mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy jihatdan yuksalishida, respublika xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda bevosita va asosiy rollardan biri sifatida ishtirok etuvchi davlat mexanizmining yadrosi ekanligini qayd etish lozim.

REFERENCES

1. Husanov O.T. O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati vakillik va ijroiya hokimiyati organlari [Representative and executive bodies of state power of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Universitet, 1994.
2. Rahmonov A.E. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy – huquqiy maqomi [Constitutional and legal status of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan]. Yurid. fan. nomz. diss. Tashkent, 2008.
3. Xoshimxonov A.M. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquq ijodkorlik faoliyati: nazariya va amaliyot masalalari. [Law-making activity of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan: issues of theory and practice] Yurid. fan. nomz. diss. – Tashkent, 2008.
4. Axmedshayeva M.A. Davlat hokimiyati tizimida ijro hokimiyati [Executive power in the system of state power]. Yurid. fan. dokt. diss. Tashkent, 2010.
5. Wilson J.Q., Dilulio J.J.Jr. American Government: Institutions and Politics. Lexington, 1995.
6. Praymak D.Y. Konstitutsionno – pravovoy status Predsedatelya Pravitelstva Rossiyskiy Federatsii. [Constitutional and legal status of the Chairman of the Government of the Russian Federation] Diss. kand. yurid. nauk. Krasnodar, 2008.
7. Vasilenko I.A. Administrativno – gosudarstvennoe upravlenie v stranax Zapada: SShA, Velikobritaniya, Fransiya, Germaniya. [Administrative and public administration in Western countries: USA, Great Britain, France, Germany]. Moscow, Logos, 2001.
8. Arutyunyan A. Institut Prezidenta v postsovetskix respublikax: konstitutsiya i politicheskaya realnost [sravnitelno – pravovoy analiz]. [Institute of the President in the Post-Soviet Republics: Constitution and Political Reality Comparative Legal Analysis]. Yerevan, Petakan tsarayutyun, 2006.

9. Pronkin S.V., Petrunina O.Y. Gosudarstvennoe upravlenie zarubejnix stran [State administration of foreign countries]. Moscow, KDU, 2011.

10. Simonashvili L.R. Respublika so smeshannoy formoy pravleniya. [Republic with a mixed form of government]. Moscow, MPSI, 2005.

11. Cherkasov A.I. Glava gosudarstva i pravitelstvo v stranax sovremennogo mira: konstitutsionno – pravovoe regulirovanie i praktika. [Head of state and government in the countries of the modern world: constitutional and legal regulation and practice] Moscow, Ekzamen, 2006.

12. Belskiy K.S. Razdelenie vlastey i otvetstvennost v gosudarstvennom upravlenii. [Separation of powers and responsibility in public administration]. Moscow, 1990.

13. Safinov K.B. Pravitelstva Respubliki Kazaxstan na perexodnom etape. Pod red. Zimanova S.Z. [Government of the Republic of Kazakhstan in transition. Ed. Zimanova S.Z.]. Almati, YURIST, 2002.

14. Aranovskiy K.B. Gosudarstvenniy pravo zarubejnix stran: Uchebnik dlya vuzov. [State Law of Foreign Countries: Textbook for Universities]. Moscow, Izdatelskaya gruppya "ФОРУМ"-“ИНФРА-М”, 1998.

15. Available at: <https://constitution.uz/oz/>.

16. Odilqoriyev H.T. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi va hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi [The new Constitution of Uzbekistan and the principle of separation of powers]. Tashkent, 1993.

17. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura [Uzbekistan: national independence, economy, politics, ideology]. T. 1. Tashkent, O'zbekiston, 1996.

18. Husanov O.T. Hokimiyat tarmoqlari o'rtasida mutanosib va barqaror munosabatning huquqiy asoslari. DYI Axborotnomasi [Legal bases of balanced and stable relations between branches of government]. TSUE Bulletin. 2006, № 5.

19. Available at: <https://lex.uz/docs/-51255/>.

20. Available at: <https://lex.uz/docs/-66386/>.

21. O'zbekistonda siyosiy islohotlar jarayoni [The process of political reforms in Uzbekistan]. Tashkent, Akademiya, 2011.

22. Available at: <https://lex.uz/docs/-29287/>.

23. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/-4636594/>.

24. Available at: <https://lex.uz/docs/-1857280/>.

25. Available at: <https://lex.uz/docs/68727/>.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov
Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.06.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 15,24 b.t. Adadi: 100.